



## OILA FAROVONLIGI JAMIYAT VA DAVLAT RIVOJINING GAROVI

**TURAKULOV BOYBURI KUZIMURATOVICH**

*IIV Surxondaryo Akademik Litseyi Huquqshunoslik Fani O'qituvchisi*

**Kalit so'zlar:** *oila, jamiyat, davlat, barqarorlik, Sharq, xalq, qonun, Konstitutsiya.*

**Ключевые слова:** *семья, общество, государство, стабильность, Восток, народ, закон, Конституция.*

**Keywords:** *family, society, state, stability, East, people, law, Constitution.*

Xalqimiz uchun muqaddas qo'rg'on, ma'navi yat beshigi bo'lgan oila, onalar va ayollarimizning jamiyatdagi o'rni va mavqeyini oshirish sohasida olib borilayotgan ishlarni izchil davom ettirish ho zirgi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Oila muqaddas dargoh, uning osoyishta va mustahkamligini saqlash oila a'zolarining burchi va vazifasi hisoblanadi. Farzandga to'g'ri tarbiya berish, ularning oilada ahil-inoqligi, bir-biriga ishonch, hurmat, e'tibori yoki bolalarkelajakda daho bo'lishida ota-onalarning o'rni kattadir.

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning fikricha, birorta ham xalq nikohdan xoli emas, jamiyat nikoh vositasi bilan erkak va ayol o'rtasidagi tabiiy munosabatlarni tartibga solib turadi, er-xotin, ota-ona va farzandlar o'rtasida, axloqiy huquqiy majburiyatlar o'rnatadi. Nikoh jinsiy ehtiroslarni maxfiylik pardasiga o'raydi, er-xotinning orasidagi tabiiy munosabatlarni axloqiy-ma'naviy go'zallik, andisha bilan hal etadi.

Qonun oldida tenglik huquqi har qanday adolatli va demokratik jamiyatning negizini tashkil etadi. Badavlat yoki kambag'allik, etnik ko'p chilikka yoki diniy ozchilikka mansubligi, hukumatning siyosiy ittifoqchisimi yoki uning raqibimi, bundan qat'i nazar har qanday odam qonun oldida baravar muhofaza etish huquqiga ega.



Oila jamiyat hayotining bir bo‘g‘ini bo‘lib, jamiyatning taraqqiyoti va shakllanishida muhim o‘rin tutadi, ya’ni oila jamiyatga shaxslarni yetkazib beradi va shu shaxslar oilada olgan bilimi, tarbiyasi va boshqa xususiyatlari bilan jamiyat hayotiga ta’sir o‘tkazadi.

Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas dargoh sanalib kelingan. Uning muqaddasligini asrash har bir oila a’zolarining burchi hisoblanadi.

Oila jamiyat hayotining bir bo‘g‘ini bo‘lib, jamiyatning taraqqiyoti va shakllanishida muhim o‘rin tutadi, ya’ni oila jamiyatga shaxslarni yetkazib beradi va shu shaxslar oilada olgan bilimi, tarbiyasi hamda boshqa xususiyatlari bilan jamiyat hayotiga ta’sir o‘tkazadi. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas dargoh sanalib kelingan. Uning muqaddasligini asrash har bir oila a’zolarining burchi hisoblanadi.

Shuningdek, oila muqaddasdir. Odamzod azal-azaldan oila sha’ni va davomiyligi xususida qayg‘uradi. Aytish mumkinki, oila katta bir davlatning kichik a’zosi, zarrasi, sodda ko‘rinishidir. Erkak va ayol esa shu oilaning tayanchlaridir.

Bizning o‘tmishimizda oila masalasi yuz ming yilliklar bilan o‘lchanadi. Oila, eng avvalo, jamiyat asosini tashkil etuvchi bolalarni tarbiyalash va uni shaxs sifatida shakllantirish muhiti bo‘lgan birlamchi bo‘g‘indir.

Respublikada oilaga alohida ahamiyat berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (63- modda)da quyidagi insonparvarlik normalarining mustahkamlab qo‘yilganligini buning yorqin dalili deyish mumkin. “Oila” jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hamda u jamiyat va davlat himoyasida bo‘lish huquqiga ega.

Muqaddas kitob sanalmish “Avesto”da davlatni ma’muriy-hududiy jihatdan boshqarish masalasi qatorida oila, oilalar ittifoqi, urug‘, qabila, qishloq, shahar, viloyatlarning tuzulishi va boshqarilishiga katta e’tibor berilgan. Ayniqsa, oila, oila jamoasi, urug‘ birlashmalarining tashkil etilishi va idora qilinishi yaxshi bayon etilgan. Davlat va jamiyatning boshlanishi, ularning eng dastlabki tabiiy ittifoqi oila ekanligiga diqqat qaratilishi xarakterlidir.



Islom manbalarida bola dunyoga kelmay turiboq uning kelajagi to'g'risida qayg'urish kerakligi haqida ko'rsatmalar bor. Oilaning zimmasidagi muqaddas burchlarning biri – ulkan tarbiya o'chog'i ekanligi. Oilada ota-ona o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. O'z farzandlarini katta oqimga – jamiyatga qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Oila, nikoh, ayol huquqlari kabi masalalar barcha uchun birday e'tiborli muammo bo'lib, u insoniyat davomiyligini ta'minlaydi.

Shu o'rinda, kelajakda turmush qurishni niyat qilgan yigit va qizlar o'zlarini doimo turmushga, ota yoki ona bo'lishga tayyorlab borishlari lozim.

Buning uchun, birinchi navbatda, o'z sog'liqlari, tanlagan juftlarining xarakteri, dunyoqarashi o'ziga qay darajada mos kelishi to'g'risida qayg'urishi kerak. Chunki sog'lom oilada sog'lom farzand tug'iladi. Oila farovonligi va barqarorligi jamiyat, davlat farovonligi va barqarorligi negizi bo'lib xizmat qiladi.

Oilaviy hayotning asrlar davomida boyib, avloddan avlodga o'tib boradigan ma'naviy asoslari jumlasiga shular kiradi. Oilani shakllantirish, mustahkamlash masalasi barcha dinlarda ham katta o'rin olgan. Islom dinida ota-onalarning burchi, farzand tarbiyalashdagi mas'uliyatning quyidagi shartlari ko'rsatilgan. Bular: bolatug'ilganda unga oqilona ism qo'yish, iloji bo'lsa, oqila qilish, o'g'il bolalarni katta qilish, tili chiqqan vaqtdan boshlab axloq-odobni o'rgatish, Allohni tanitish, Qur'oni Karim oyatlari, namoz vaqtlarini o'rgatish, dunyoviy bilimlarning birini egallashga ko'maklashishdir.

Bu shartlarda oiladagi farzand tarbiyasining asosiy mezonlari ifodalangan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan hozirgi kunlarda oilaviy munosabatlarning ma'naviy asoslariga oid bo'lgan diniy va milliy an'analar, qadriyatlarni tanlash nihoyatda katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu o'tmishiga qaytish emas, balki kelajak muammolariga tarixiy saboqlar, milliy me'rosni e'tiborga olib oqilona yondashishdir.



O‘zbek oilalari asrlar davomida mustahkam, ahil jamoa, ma’naviyat va tarbiya o‘chog‘i bo‘lib kelgan.

Oiladagi muhit, turmush qurish borasidagi an’analar sog‘lom, ma’naviyatli avlodni tarbiyalashga xizmat qilgan. Oilada bolalarni mehnatsevarlikka ba’zan oilaviy an’analar bo‘yicha kasbhunarga, bir-birini qo‘llab-quvvatlashga, ota-ona, qo‘ni-qo‘shnilar, keksalar va jamoatchilikni hurmat qilishga o‘rgatganlar. Oiladagi sog‘lom ma’naviy muhit yangi oilalarga ham zamin ancha mustahkam bo‘lishiga olib kelgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Adolat”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. – Toshkent, 2000. –B. 3.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Oila kodeksi”. – Toshkent, 1998.
4. O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar. – Toshkent: “Adolat”, 2019. – B. 51.
5. Karimova O. Qonun, oila, farzand va jamiyat – Toshkent, 2001. – B. 6.
6. Yo‘ldoshev J., Xasanov S. Avestoda axloqiy-ta’limiy qarashlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992y– B. 21.
7. Beruniy. Tanlangan asarlar – Toshkent: “Fan”, 1968. – B. 72.
8. Масолевский А.О. Авесто. – Баку, 1960. – Б. 81-80.